

## XALQ TA'LIMI TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH MODELI

**Buriyeva Xansuluv Baxtiyorovna**

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada pedagoglarning doimiy ravishda yangi bilim olishga, kasbiy va shaxsiy o'sishga intilishiga yuqori natijalarga erishishi uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi kerakligini tushunishadi.*

**Kalit so'zlar:** Uzluksiz kasbiy ta'lim, o'qituvchi, zamonaviy pedagog, kommunikativ.

### ABSTRACT

*In this article, it is understood that the electronic platform "Continuous professional education" is necessary for pedagogues to achieve high results in their pursuit of constant learning, professional and personal growth.*

**Key words:** Continuing professional education, teacher, modern pedagogue, communicative.

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье подразумевается, что электронная площадка «Непрерывное профессиональное образование» необходима педагогам для достижения высоких результатов в стремлении к постоянному обучению, профессиональному и личностному росту.*

**Ключевые слова:** Непрерывное профессиональное образование, педагог, современный педагог, коммуникативность.

O'zbekistonda, ko'plab ta'lim muassasalarida virtual ta'lim muhiti sifatida aynan LMS dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-son qarori asosida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi (<https://onlinedu.uz>) yaratildi va xalq ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy malakasini oshirish jarayonida foydalanish yo'lga qo'yildi. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti rektori Radjiev Ayubxon Baxtiyorxonovich "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi g'oya va dastur muallifi.

Maxsus platforma xalq ta'limi xodimlariga quyidagi qulayliklarni yaratib beradi:

- “tas-ix” da joylashtirilgani va personal kompyuter bilan birga mobil telefon orkali (Android, iOS) kirish imkoniyati;

- onlayn ruyxatdan utish va malaka oshirish;

- har bir tinglovchining shaxsiy kabineti mavjudligi;

- malaka oshirishni boshlashdan oldin kasbiy kompetensiyalar buyicha diagnostikadan utish imkoniyati;

- diagnostika natijalariga asosan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasining shakllanishi;

- extiyojga asoslangan kurslarning taklif etilishi;

- har bir kursdagi aloxida mavzu buyicha ma'ruza, videodars, takdimot, adabiyotlar mavjudligi;

- har bir mavzu oxirida uzlashtirish darajasini aniklash imkoniyati (agarda tinglovchi ma'lum mavzuni uzlashtirishi past bolsa keyingi mavzular ochilmaydi va qayta uzlashtirishi uchun vaqt beradi);

- rahbar va mutaxassislar kamida 30 soat (15 kredit), pedagoglar 36 soat (18 kredit) malaka oshirishdan utgandan keyin malaka oshirish ganlik tuFrisidagi elektron sertifikat;

- har bir tinglovchining natijalaridan kelib chikib shaxsiy portfoliosi shakllanishi;

- mukobil malaka oshirish shakllaridan foydalanish uchun muayyan kredit tuplash imkoniyati;

- malaka oshirish davrida turli vebinarlarda cheklanmagan vaktida cheklanmagan sondagi tinglovchilar ishtirok etishi (bunda tinglovchi onlayn vebinarida ishtirok etmasa vebinarining arxivini kurishi mumkin);

- vebinarlar utkazish vaktida turli onlayn surovnomalar utkazish imkoniyati;

- yaratilgan kurslar sifatini baxolash (5 balli tizimda);

- tinglovchilar va tyutorlar urtasida uzaro mulokot kilish va fayl almashish;

- tinglovchilar tomonidan uzlarining mualliflik kurslarini joy- lashtirish;

- malaka oshirish tizimini yanada rivojlantirish va sifat darajasini oshirish maksadida monitoring tizimi, ya'ni respublika, viloyat, tuman, maktab, fan metodisti darajasida uzlarining pedagoglari bilim va kunikmalarni monitoring qilish va kerakli kursatmalar berish imkoniyati mavjudligi;

Ommabop kurslar

Ushbu kurslar bepul va pullik tarzda tavsiya etiladi.

Tanlov tinglovchining ixtiyorida bo'lib, tavsiya etilayotgan kurslarda o'qish majburiy emas.

Kurs kontentlarini yanada rivojlantirish maqsadida har bir kursda individual surovnomalar va baxolash tizimining mavjudligi va qulayligi.

Malaka oshirish kurslaridan tashqari ixtiyoriy, soxa vakiliga qiziq bo'lgan ommabop kurslar joylashtirish imkoniyatlari yaratildi.

Bir vaqtning o'zida turli gadjetlar orqali kirish imkoniyati. Personal Computer, MacBook, Notebook, Netbook, Mobile phone, Plashed, Smart TV.

Ixtiyoriy operatsion tizimdan foydalanish imkoniyati. Android, iOS, Windows, Linux, Unix.

Istalgan turdagi brovzer dasturidan foydalanish Google Chrome, Mozilla Firefox, Opera, Yandex, Safari, Microsoft Edge.

Individual kasbiy rivojlanish traektoriyasi

Maktab direktorlari 8 ta kompetensiya bo'yicha eng kamida 15 kredit to'plashlari kerak bo'ladi. Ushbu kompetensiyalar quyidagilar:

1. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
2. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik
3. O'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish
4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari
6. Boshqaruvda huquqiy masalalar
7. Ta'limda boshqaruv
8. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar

1. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish kompetentlik ko'rsatkichlari:

- o'z g'aralar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olish;  
- o'z g'aralar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish;

- o'z g'aralarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish;

- ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z hamkasblari bilan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o'rnatish va hamkorlik qilish;

- ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish;

- o'z g'aralar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlarni o'rnatish;

- o'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etish;

- milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish.

2. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetentligi ko'rsatkichlari:

- ta'lim muassasasini axborotlashtirish g'oyalarini ilgari surish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari madaniyatini rivojlantirish va ushbu g'oyalarni amalga oshiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishni ta'minlash;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini joriy etishga ko'maklashish;

- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy, huquqiy va axloqiy normalari ahamiyatini tushunish, ulardan xavfsizlikni ta'minlagan holda foydalanish va ushbu yo'nalish bo'yicha tegishli yo'riqnomalarni ishlab chiqish;

- ta'lim mazmuniga mos bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning turli samarali strategiya va yondashuvlarini rejalashtirish, ilgari surish va qo'llab-quvvatlash;

- maktab boshqaruvida va fanlarni o'qitish jarayonida faoliyatni takomillashtirish va samarali tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini joriy etilishini ta'minlash;

- ta'lim muassasa faoliyatini va o'quvchilar kompetensiyasini baholashning samarali usullarini joriy etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- ommaviy axborot vositalaridagi media kontentni tushunish, media savodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish yo'llarini bilish;

- turli shakllar va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, qayta ishlash va yangi ma'lumotlarni yaratish.

3. O'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish kompetensiyasi ko'rsatkichlari:

- kasbiy rivojlanish uchun individual rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan maktabning ichki baholash tizimini tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

- ta'lim muassasalar o'rtasida tajriba, bilim va ko'nikmalar almashish, jumladan, ijobiy xalqaro tajribani o'z faoliyatiga tatbiq etish;

- kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni aniqlay olishi, o'zining va ishlaydigan muassasasi ehtiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo'yicha o'quvlarni tanlay olishi va ularda ishtirok etish;

- axborot kommunikatsiya texnologiyalari va global tarmoq resurslaridan foydalangan holda doimiy tarzda o'z kasbiy malakasini oshirib borish;

- boshqaruv usullari, ta'lim va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishga oid innovatsiyalar bilan tanishib borish;

- kasbiy (rahbarlik, mutaxassislik) faoliyatini takomillashtirishda turli texnologiyalardan foydalanish;

- o'z kasbiy bilim va mahoratini oshirish hamda takomillashtirishda kollegial forumlardagi muhokamalarda ishtirok etish.

4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi ko'rsatkichlari:

- ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish;

- ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish;

- turli xil yangi vazifalar va mas'uliyatlarni qabul qila olish;

- o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;

- o'ziga va ta'lim muassasa xodimlariga nisbatan yuqori marra va standartlarni belgilash va ularga erishish.

- har bir o'quvchining o'zlashtirishi va muvaffaqiyatli ta'lim olishiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

- ta'lim muassasa hayotida ota-onalar va jamiyatning boshqa vakillarining samarali va konstruktiv ishtirokini ta'minlash maqsadida hamkorlikni rivojlantirish;

- o'quvchilarning ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshilash maqsadida jamiyatning turli resurslaridan samarali foydalanishni amalga oshirish;

- ta'lim muassasasining turli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligini tashkil etish va tajriba almashish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli strategiyalarini bilish;

- o'quvchilarning samarali ta'lim va tarbiya olishlari uchun muassasa, jamoat tashkilotlari va ota-onalar o'rtasida (brending) hamkorlik va raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash.

- ta'lim jarayonining markaziga o'quvchini qo'yish va har bir o'quvchining o'zlashtirish va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari kompetentligi ko'rsatkichlari:

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalarini bilishi;

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va joriy eta olish;

- zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilar dunyoqarashi va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish;

- imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal eta olish.

6. Boshqaruvda huquqiy masalalar kompetentlik ko'rsatkichlari:

- qonunchilik normalarini bilish hamda ularga og'ishmay rioya qilish;

- ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish;

- o'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- bolalarning huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ularga rioya qilish;

- ish yuritish bilan bog'liq huquqiy asoslarga rioya etilishini ta'minlash;

- qonunchilikka muvofiq ish yuritishning olib borilishiga javob berish;

- mavjud tartibga muvofiq oldindan belgilangan muddatlarda ish yuritish sifatini ta'minlash;

- ish yuritishda shaffoflik va ommaviylik tamoyillarini qo'llash;

- ta'lim muassasaning hisobot, shu jumladan moliyaviy hisobot masalalariga taalluqli qonunchilik bazasining bajarilishini ta'minlash.

7. Ta'limda boshqaruv kompetentligi ko'rsatkichlari:

- ta'lim oldidagi dolzarb maqsadlarni qo'ya olish va ularni amalga oshirishning samarali yo'llarini belgilay olish;

- ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyalarini belgilay olish;

- ta'lim mazmuni va strategiyalarini tushunishini namoyish qila olish;

- turli ta'lim yondashuvlari, strategiyalari, texnologiya va metodlarini tushunish va farqlay olish;

- Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va baholash mezonlarini ta'lim jarayoniga joriy etish yo'llarini bilish va buning uchun tegishli shart-sharoitlar yarata olish;



- xalq ta'limi sohasida ilg'or xalqaro tajribalar asosida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish jarayonini boshqarish;
- ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish;
- ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli strategiyalarini bilish;
- ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash;
- ta'lim olish muhitining motivatsiya asosida tashkil eta olish;
- ta'lim muassasasiga kadrlarni ishga olish, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- rag'batlantirish shakllarini qo'llay olish
- kadrlar zaxiralarini rejalashtirish, boshqarish, yangi kadrlarni tayyorlash;
- kadrlar salohiyati va tajribasini oshirish, ularning kasbiy bilim va malakalarini rivojlantirishga ko'maklashish;
- kadrlarning kasbiy saviyasini oshirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash va motivatsiyasini oshirish;
- ta'lim sifatini oshirish maqsadida muassasaning kadrlar, moliyaviy, moddiy resurslarini boshqara olish;
- boshqaruvda shaffoflik, adolatlilik, o'zaro ishonch, hamkorlik, qat'iyatlilik sifatlarini namoyish qilish.

#### 8. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar kompetentlik ko'rsatkichlari:

- ta'lim muassasasining moliya-xo'jalik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarni tushunish va ularni amaliyotda qo'llay olish;
- ta'lim muassasasining yillik va istiqboldagi byudjetini to'g'ri rejalashtira olish;
- yillik byudjetni erishimli muddatga ishlab chiqish va muvofiqlashtirish;
- amaldagi me'yorlar asosida muassasa shtatlar jadvalini shakllantirish va xodimlarni tarifkatsiyalashni bilish;
- ta'lim muassasasini moliyalashtirish mexanizmlarini tushunish;
- muassasasini boshqarishda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning samaradorligini tahlil qila olish;
- muassasada buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishning tayanch bilimlariga ega ekanligini namoyish qila olish;
- davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar turlarini bilish va byudjet intizomiga rioya etish.

Malaka oshirish kurslaridan yig'ilgan kredit miqdori Diagnostika test natijasining o'rgimchak to'ri grafikasidagi ko'rinishi aks ettirilgan.

Diagnostika test natijasining chiziqli grafikda ko'rishi 100 ballik baholash

tizimdan olingan diagnostika test natijasi.

Tinglovchi taqdim etilgan kurslar mavzular mazmunini qay darajada o'zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida videodarsning ma'lum vaqt oraliqlarida test topshiriqlari berib boriladi. Tinglovchilar har bir mashg'ulot so'ngida o'z bilim darajasini bilishlari uchun test topshiriqlari berilgan. Topshiriqni bajarishda yetarli ball to'play olmagan taqdirda ma'lum vaqtdan keyin qayta topshirish mumkinligi ko'rinadi. So'ng topshiriq natijalari to'g'risida umumiy ma'lumot chiqadi. Malaka oshirish kursi tinglovchilari muallif tomonidan yaratilgan kurslarni mazmun-mohiyatini tahliliy va tanqidiy ko'rib chiqish orqali o'zlarining taklif, tanqidiy fikr va mulohazalarini berish imkoniga egadirlar.

Muallif tomonidan taklif etilgan kurslar tinglovchilar tomonidan fikr mulohazalar berish asosida tashkil etilgan. Tinglovchilar yaratilgan kurslarni mazmun-mohiyatini tahliliy va tanqidiy ko'rib chiqish orqali o'zlarining taklif, tanqidlarini va fikr mulohazalarini berish imkoniga ega. Har bir yaratilgan kurs tinglovchilar tomonidan 0-5 gacha balolash tizimi orqali baholanadi. Umumiy baholangan natijaning o'rtacha koeffitsientiga qarab yangi kurslar tuzish uchun mualliflar bilan shartnomalar tuziladi. Tinglovchi tomonidan tanlangan malaka oshirish kurslari muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng davlat namunasidagi elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi. Sertifikatni yuklab olish hamda haqqoniyligini tekshirib olish imkoniyati mavjud.

Maktab rahbarlari platforma orqali malaka oshirish kurslarida o'qiyotgan o'qituvchilarini nazorat qilish imkoniyatiga egadirlar. Maktab rahbarlari uchun platformada nazorat bo'limi kiritilgan.

Vebinar yoki veb-seminarda barcha foydalanuvchilar o'z ish joylaridan kerakli uskunalar bilan ta'minlangan kompyuterlar orqali ishtirok etishlari mumkin. Vebinar onlayn taqdimotlar (Power Point), savdo uchrashuvlari, treninglar, saytlarning sinxron namoyishi, video fayllar va tasvirlar, hujjatlar va dasturiy ilovalar (Word, Excel va boshqalar) bilan birga ishlash imkonini beradi. Vebinarida bir necha yuzlab ishtirokchilar bir vaqtning o'zida ishtirok etishi va bunda bir yoki bir nechta ishtirokchi vebinar yetakchisi – ma'ruzachi bo'lishi mumkin.

Buning uchun vebinarida ishtirok etishni istagan foydalanuvchiga faqatgina internetga ulangan noutbuk yoki naushnik (kolonka) bilan jihozlangan kompyuter yetarli bo'ladi. Agar tinglovchi vebinar paytida audio yoki video konferensiyada ishtirok etishni istasa, unga mikrofon va veb-kamera kerak bo'ladi.

Vebinarni tashkil etish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Vebinar uchun tayyorgarlik ko'rish.
2. Vebinar jarayoni.



3. Natijalar sarhisobi (ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini olish, vebinarining samaradorligini baholash).

**Birinchi bosqich** – vebinar uchun tayyorgarlik ko‘rish. Vebinar o‘tkazishdan oldin tashkilotning rasmiy veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida uning maqsadi haqida asosiy fikrlarni belgilab olish va kichik reklama tashviqotini o‘tkazish kerak. Vebinar ma‘ruzachisi, mavzusi, boshlanish vaqti va uning davomiyligi albatta ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi. Vebinarga tinglovchilarni qamrab olish maqsadida ularga xabarni bir hafta oldin yuborish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, uchrashuv boshlanishidan bir kun oldin qisqa mazmundagi eslatmalar yuborish maqsadga muvofiq. Vebinar boshlanishidan bir necha daqiqa oldin ishtirokchilar ro‘yxatga olinadi. Vebinarni boshlashdan oldin tovush, veb-kamera, ish stoli, taqdimot xususiyatlarini va boshqalarni sinovdan o‘tkazib ko‘rish tavsiya etiladi. Bu sinov texnik muammolarning xavfini kamaytiradi va oldindan translyatsiyaning barcha parametrlarini sozlash imkonini beradi. Vebinar uchun tavsiya etiladigan vaqt davomiyligi 45 daqiqa hisoblanadi. Ushbu vaqt mobaynida tinglovchilar e‘tiborini jalb etib turish va ma‘ruzadan so‘ng yana 15 daqiqa ishtirokchilar bilan savol-javob o‘tkazish mumkin. Vebinarining muvaffaqiyati birinchi navbatda ma‘ruzachining tarqatma materiallariga bog‘liq. Vebinarlarni tashkil etuvchi aksariyat platformalarda ishtirokchini ro‘yxatga olish blogida elektron pochta so‘rovchi maydon mavjud. Shuning uchun ta‘limiy yoki trening tipidagi vebinarlarni tashkil etishda tarqatma materiallar bilan tanishish va vaqtni tejash uchun uni oldindan uzatish imkoniyati mavjud.

**Ikkinchi bosqich** – Vebinar o‘tkazish. Ishtirokchilar vebinarga har doim ham o‘z vaqtida bog‘lana olmaydilar. Shuning uchun dastlabki 5-7 daqiqa mobaynida uchrashuvning asosiy maqsadiga o‘tmagan ma‘qul. Uning o‘rniga bu vaqtdan unumli foydalanib aloqa sifatini tekshirish, chat (yozishmalar) almashish jarayonini sozlash kabi tayyorgarlik ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Vebinar jarayonida aksariyat ishtirokchilar chat (yozishmalar) tizimi orqali ko‘plab savollar bilan murojaat qiladilar. Shuning uchun vebinar jarayonida albatta yordamchining ko‘magiga muhtoj bo‘lamiz. U foydalanuvchilarga texnik muammolarni hal qilishda yordam beradi, ulaning savollarini tahlil qilib boradi va ma‘ruzachini to‘xtatishi yoki vebinar so‘nggida savolni eshittirishi mumkin. Ishtirokchilarga savol bilan murojaat qilish va asosiy qaralayotgan mavzuga oid fikrlarni bilish juda muhim sanaladi. Shunday qilib, tinglovchilar e‘tiborini qaralayotgan mavzuga jalb qilish mumkin. Savollar murakkab bo‘lmasligi kerak, shuningdek, muhokamani boshqara olish ham talab etiladi. Aks holda mavzudan chetlashib ketish mumkin. Odatdagi “jonli” uchrashuvlardan farqli ravishda vebinar boshlovchisining tinglovchilarga ta‘sir etish imkoniyati kamroq,

chunki veb-kamera yordamida noverbal muloqot o'rnatish oson emas. Faqat ekrandagi ovozli va vizual taqdimot bilan ta'sir qilish imkoniyati bor, xolos. Shuning uchun webinar uchun tayyorlangan taqdimotlarda odatdagi taqdimotlarga nisbatan ko'proq animatsiyalar, vizual axborotlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chatdagi savollarga javob berishda uni mikrofonorqali takrorlash ishtirokchilar tomonidan javobni ko'rish (yoki eshitish) ehtimolini oshiradi. Shuningdek, hech kimda texnik nosozlik tufayli uzilish bo'ldi degan taassurot uyg'onmaydi. Tinglovchilar e'tiborini ushlab turishning eng muhim omili webinar tempini saqlash hisoblanadi. Uzoq uzilishga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Chunki uzilishlar auditoriyaga sukunat olib keladi va ishtirokchilarga ma'lumot uzatish kanallarida nosozlik borligi kabi taassurot uyg'otadi.

**Uchinchi bosqich** – webinarini yakunlash va xulosalarni umumlashtirish. Ma'ruza tugaganidan so'ng webinarining asosiy mavzusi yuzasidan muhokama olib borish yoki mavzu yuzasidan tug'ilgan savollarga javob berish mumkin. Savollar bo'lmaganda, yanada muhimroq mavzuni muhokama qilish, oldingi webinarlarda berilgan savollar bilan murojaat qilish ham mumkin. Muhimi, birinchi savolni berish va mavzu muhokamasini boshlashdir. Uchrashuvning oxirida esa navbatdagi veb-seminar haqidagi yoki boshqa muhim axborotlarni e'lon qilish mumkin. Muallif tomonidan tinglovchilar o'rtasida vebinarga parallel ravishda so'rovnoma va savolnomalar tuzish imkoniyatni beradi. So'rovnoma va savolnomalar avtomatik ravishda hisob tizimi yangilanib boradi. So'rovnoma va savolnomalar yangi shaklda yaratilishi yoki mavjud shablonlardan foydalanib tashkil etilishi mumkin. Webinar orqali tinglovchilar bilan umumiy yoki alohida tartibda fayl va xabar almashinish, muallifning tinglovchilarga webinarini boshqarish va tizimga kirib chiqishi uchun ruxsat berish, turli video materiallar bilan tanishtirish, grafik tasvirlar va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda monitor tasvirlarini to'g'ridan-to'g'ri uzatish, webinar jarayonini yozib olish orqali platformadan keyinchalik kuzatish imkoniyatlari mavjud. Webinarlar ham internet muhitidagi online ta'limning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridagi o'quv jarayoniga tatbiq etilishi zamonaviy talablar asosidagi dasturiy va metodik ta'minotini talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, webinar samaradorligini oshirishga hamda ishtirokchilar uchun qulay online ta'lim muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.